

## ZAMONAVIY O‘ZBEKISTONDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**Odilova Iroda**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti M.Sc.  
Theory and Methods of Primary education*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining yangicha siyosiy qarashlari va uning istiqboli ularga qo’yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so’zlar:** *zamonaviy ta’lim, Uyg’onish davri, Uchinchi Renessans, milliy ta’lim, siyosiy qarash, siyosiy bilimlilik, siyosiy axloqlik, siyosiy harakatchanlik, siyosiy tashabbuskorlik.*

**Аннотация:** *В данной статье выражены новые политические взгляды будущих учителей начальных классов на современное образование и требования, предъявляемые к ним в связи с его перспективами.*

**Ключовие слова:** *современное образование, Ренессанс, Третий Ренессанс, национальное образование, политическое видение, политическое образование, политическая этика, политическая мобильность, политическая инициатива.*

**Annotation:** *This article reflects on the new political views of future primary school teachers in modern education and the demands placed on them by its perspective.*

**Key words:** *modern education, Renaissance, Third Renaissance, national education, political vision, political education, political ethics, political mobility, political initiative.*

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ta’lim islohotlarini amalga oshirish bo‘yicha butunlay yangicha g‘oyalar, yondashuvlar, tamoyillar va yo‘nalishlarga asoslangan bosqichga qadam qo‘ydi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan quyidagi vazifa qo‘yildi: “Ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik”. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga uchinchi Murojaatnomasi va 2020 yil - “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilinishi, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni tasdiqlandi va amalga kiritilishi, «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida»gi Farmonining qabul qilinishi hamda Respublikamiz Prezidentining “O’qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan ta’limga oid murojaat nutqining ma’no – mazmunida ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O‘zbekistonni yaratish maqsadida ta’lim sohasida amalga oshiriladigan islohotlar o‘z aksini topgan. Bu

muhim hujjatlar ta'lim islohotlarini yangi bosqichga ko'tardi va mutloqa yangi vazifalar belgilab berildi. Shu ma'noda zamonaviy o'qituvchilarga qo'yiladigan kasbiy va ijtimoiy talablarni yangicha asoslarda qo'yish ehtiyoji yuzaga keladi. Hozirgi zamon o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar majmui pedagogik tadqiqotlar va adabiyotlarda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bu o'rinda bizni ana shu masala doirasiga kiruvchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning siyosiy qarashlariga qo'yiladigan yangicha talablar muammosi qiziqtiradi. O'qituvchining siyosiy qarashini uning siyosiy g'oya, ongi, ko'nikmasi va madaniyati majmui tashkil qiladi. Shu jihatdan o'qituvchining mustaqil va yangicha siyosiy qarashga ega bo'lishi pedagogik mahorat va ta'lim menejmenti bo'yicha malakaga egalik yo'nalishlariga daxldor masaladir. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahorat va boshqaruv malakasini shakllantirishda ularni mustaqil va yangicha siyosiy qarashga ega bo'lishi ishiga ham asosiy e'tibor qaratiladi. Ta'lim tizimiga oid qabul qilinayotgan me'yoriy-normativ xujjatlarda qo'yilayotgan vazifalarning nazariy-pedagogik tahlili va zamonaviy pedagogik tadqiqotlar natijalariga asosan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining siyosiy qarashlariga qo'yiladigan yangicha talablarning quyidagi uch tamoyil orqali belgilash mumkin: 1) milliy onglilik; 2) mustaqil siyosiy qarashlik; 3) siyosiy tashabbuskorlik. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining milliy ongliligi milliy g'oyaga asoslandi: 1) insonparvarlik; 2) xalqparvarlik; 3) vatanparvarlik. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining milliy ongga egaligi uning insonparvarlik, xalqparvarlik va vatanparvarlik sifatlariga kutilgan darajaga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Bu tamoyil – sifatlar boshlang'ich sinf o'qituvchisida qanday darajada tarkib topganligi va ularga qanday amal qilishiga qarab milliy ongning darajasi baholanadi. Ikkinchi yangicha talab bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil siyosiy qarashga ega bo'lishidir. Mustaqil siyosiy qarash negizini uch omil tashkil qiladi: 1) siyosiy bilimlilik; 2) siyosiy ahloqlik; 3) siyosiy harakatchanlik. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining siyosiy bilimga egaligi davlat va jamiyat hayotidan xabardorligi, siyosiy ta'limotlarni o'zlashtirganligini va yangicha siyosiy fikrlashi bilan belgilanadi. Uning siyosiy axloqligini kasbiy madaniyatligi, muxolif fikrlarni eshita olishi va o'ziga xos axloqiy munosabatga egaligi tashkil qiladi. Siyosiy harakatchanlik esa boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z huquqlari doirasida siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishni kasbiy jihatdan targ'ibot qilishi va siyosiy harakatlar samaralarini kuzatib borishdan iborat. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining siyosiy qarashlariga qo'yiladigan uchunchi yangicha talab siyosiy tashabbuskorlikdir. Shuningdek bo'lajak boshlang'ich sinf

o'qituvchisi siyosiy tarbiyachining innovatsion klaster texnologiyasi va kelajakka yo'nalganlik tamoyillar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirishga doir nazariy qarashlar va yondashuvlarni belgilash, ularning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilgan hamda ta'lim jarayonida joriy qilinishi lozim. Siyosiy tarbiyasining innovatsion klaster texnologiyasi va kelajakka yo'nalganlik tamoyillar asosida ta'lim mazmunini rivojlantirishga oid o'quv - uslubiy qo'llanmalar yaratish orqali ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining siyosiy tarbiyasida quyidagilarni amalga oshirish lozim: - bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi siyosiy tarbiyasining innovatsion klaster texnologiyasi va kelajakka yo'nalganlik tamoyillar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish imkoniyatlari ochib berish; - bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi siyosiy qarashlarining innovatsion klaster texnologiyasi va faoliyatli-uslubiy mexanizmlarini ishlab chiqish orqali tashkiliy komponentlari (rejalashtirish, loyihalashtirish, amalga oshirish va baholash) mazmuni takomillashtirish; - maxsus fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak pedagog kadrlarning siyosiy tarbiyasini takomillashtirish (loyiha, hamkorlikda o'qitish, rivojlantiruvchi) texnologiyalari va o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish orqali kasbiy tayyorgarlik metodikasi takomillashtirish; - innovatsion texnologiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi siyosiy tarbiyasini takomillashtirish va sifat ko'rsatkichlarini baholash (aksiologik, ijodiy-kognitiv, operatsion-faoliyatli) mezonlari ishlab chiqish. Ushbu mezonlar orqali quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi: 1. Zamonaviy jamiyatning ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib, yosh avlodni siyosiy daxldorlik ruhida tarbiyalaydi; 2. Shaxsni o'z davrining me'yorlari va qoidalari asosida siyosiy ijtimoiylashtiradi (siyosiy hayotga tayyorlaydi); 3. Jamiyatda tarkib topayotgan yangi siyosiy strategik yo'nalishlarga shaxsni moslashtiradi (adaptatsiya); 4. Shaxsda barqaror siyosiy bilim, ko'nikma va malakani shakllantiradi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda tarbiya masalasini ilk rejaga qo'yadi va asosiy e'tiborni shaxsning siyosiy tarbiyalanganlik darajasiga qaratadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi siyosiy tarbiyalangan darajasini aniqlash mezonlari uchta: 1. Mustaqil siyosiy fikrga ega bo'lishi; 2. Siyosiy ko'nikmaning mavjudligi; 3. Siyosiy ko'nikmaning shakllanganligi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashtirish davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda". E'tibor berilsa, bu o'rinda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining talab darajasida siyosiy qarashga ega bo'lishi va kasbiy faoliyat davomida uni yosh avlod ongiga sindirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bu vazifalar zamonaviy ta'lim tizimi jarayonida amalga oshirishi kerak. Buning natijasida ta'lim sohasida Prezidentimiz ta'kidlagan "shaxsning siyosiy uyg'oq bo'lishi" samarasiga erishiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 6108- sonli Farmoni.2020 yil 6 noyabr.

2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ – 637 sonli Qonuni.2020 yil 23 sentabr.

3. O'zbekiston Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan so'zlagan nutqi.2020 yil 30 sentabr.

4. F.Jumanova, A.O'tayev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga uchinchi Murojaatnomasi.Chirchiq.2020.

5. A.O'tayev. Alisher Navoiyning siyosiy qarashlariga doir. Chirchiq.2020.

6. Рахмонов, А. Р. (2019). Инновацион таълим кластери ўқув фаолиятига самарали усул сифатида. «БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШДА УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР» халқаро илмий-амалий анжуман, 2, 46.